

**O‘ZBEKISTON VA TURKIYA DAVLATI HAMKORLIGI VA UNING
ME‘YORIY HUQUQIY ASOSLARI**

Izzatova Ra‘no Ulug‘bekovna

TDSHU Tarix (faoliyatlar va

yo‘nalishlar turi bo‘yicha) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

izzatovarano377@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston va Turkiya davlatining hamkorlik aloqalari uning istiqbollari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kirish so‘zlar: Hamkorlik, elchixonalar, qardoshlik

1991-yilning 31-avgusti O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi rasman e‘lon qilingan kun mamlakatimiz uchun yangi tarixiy davr-buyuk kelajakka chog‘langan erkin, suveren rivojlanish davri boshlangan qutlug‘ sana bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston, albatta, xalqaro huquqning teng xuquqli a‘zosi bo‘lishi, o‘z davlatchiligini qurishi, mustaqillikni mustahkamlashi, murakkab ziddiyatlarga boy bo‘lgan dunyoda munosib o‘rnini egallashi lozim edi. Hayotning o‘zi mamlakat va uning diplomatiyasi oldiga ana shunday vazifalarni qo‘ygan edi. Tashqi siyosati ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti asosidagi ochiq demokratik jamiyat qurish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni ta‘minlash, Markaziy Osiyo mintaqasi va butun dunyoda barqarorlik, taraqqiyot va gullab-yashnash ustivor bo‘lishiga qaratilgan O‘zbekiston darhol o‘zini tinchliksevar davlat sifatida namoyon qildi. Mamlakat suverenligini 165 davlat tan oldi, bu davlatlarning 120 tasi bilan diplomatiya munosabatlari o‘rnatildi. Toshkentda 43 davlat xamda 20 yirik xalqaro tashkilot missiyalari akkreditatsiya qilingan. O‘z navbatida O‘zbekiston xorijiy mamlakatlarda o‘zining 39 ta vakolatxonasini ochdi. Mana shu mamlakatlar qatorida Turkiya davlati ham bor edi.¹

1991-yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng xalqaro maydonda o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun birinchi o‘rinda qardosh mamlakatlar, shuningdek Yevropa va Osiyo mintaqasidagi rivojlangan mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatishi zarur edi. Mustaqillik yillarida tashkiliy huquqiy asoslar yaratildi, hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar, dunyoning turli davlatlari bilan bir qancha sohada o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yilishida muhim qadamlar tashlandi va mana shu muhim qadamlardan biri O‘zbekiston va Turkiya

¹ Buxoro Davlat Universiteti. “Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi”. Ma‘ruzalar to‘plami. 2018. b. 98-99.

davlatlarining ikki tomonlama manfaatli bo'lgan munosabatlar yo'lga qo'yilishi bo'ldi.²

O'zbekiston va Turkiya Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlar hamda davlat tashriflari 1991-yilning oxirlaridan boshlandi. Shu yili 16-19 dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov (1991-2016) Turkiyaga rasmiy tashrif bilan bordi. Tashrif davomida "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasidagi aloqalarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma", "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida bitim", "Ahdlashuv protokoli" kabi xujjatlarni imzolanishi o'zaro hamkorlikda muhim qadam bo'ldi. Binobarin, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining me'yoriy huquqiy bazasini shakllantirish, Turkiya Respublikasi bilan hamkorlik qilish ishlari tashqi siyosiy faoliyatga doir normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladigan bo'ldi. Bunday o'zaro diplomatik aloqalarning o'rnatilishida davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari chog'ida tuziladigan shartnomalar, bitimlar, memorandumlar, shuningdek, vazirliklar, hukumatlararo komissiyalarining tashqi siyosiy faoliyat tamoyillarini, shartnoma va bitimlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan institutsion aloqalar jarayonlarida qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyati katta bo'ldi.

Tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Turkiyaning xalqaro jamoatchilik sohasidagi yondashuvini yuqori baholab, "SSSR parchalanib ketgach hozirgi qiyin vaziyatni hisobga olgan holda, O'zbekiston samarali rivojlanish yo'lini tanlashga majbur. Turkiya tomonidan qo'llaniladigan iqtisodiy modeli bizning mamlakatimizga ham tegishli, chunki bizning xalqlarimizni an'anaviy do'stlik rishtalari bilan bog'lab turadi. Umuman olganda, ushbu tashrifdan so'ng barcha jarayonlar ikki davlatni asosiy sheriklarga aylanganini ko'rsatib turar edi. Turkiya Prezidenti Turgut O'zol hattoki, Sovet tuzumi hukmronligi davrida ham Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama aloqalar qilishni yoqlar edi.

I.A.Karimovning 1991-yilda O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilishi, Turkiyaning O'zbekiston mustaqilligini tan olishi va qo'llab-quvvatlashi O'zbekiston rahbarining xalqaro doiradagi obro'sini oshirdi. Ushbu tashrif ikki tomonlama aloqalarni har jihatdan rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Shuni aytish o'rinliki, O'zbekistonning Turkiya bilan tobora rivojlanib borayotgan aloqasini g'ayritabiiy siyosiy pozitsiya deb o'ylagan ayrim O'rta Osiyo mamlakatlari O'zbekistonni Turkiya modeliga amal qilishini taxmin qildilar. Shu bilan birga, I.A.Karimov bir qator aniq ogohlantiruvchi so'zlarni aytib, avval O'zbekistonning o'z modeli va undan keyin Turkiyaning modeliga amal qilishini alohida ta'kidladi: "Men Turkiyaning bir vaqtning o'zida o'z milliy urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish yo'lidagi harakatlarini

² B.X. Imamov. O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991-2018 yy.). Monografiya. – Q.: «Intellekt» nashriyoti, 2021. b.18-21.

hurmat qilaman. Shuning uchun men turk modeli haqida gapirganda, uni namuna sifatida tushunaman. Ammo O‘zbekistonning o‘z tanlagan yo‘li bor”. Shubhasiz, Turkiya sherikchilikda o‘zaro teng va O‘zbekistondan ustun bo‘lmasligi kerak edi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘zgacha bo‘lishi kerakligini anglatardi.

1992-yil 28-aprelda Turkiya Bosh vaziri S.Demirel (1991-1993)ning O‘zbekistonga kelishi ikki davlat o‘rtasida munosabatlarning rivojlanishida katta voqea bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi “Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi” va Turkiyaning “Tashqi iqtisodiy hamkorlik kengashi” o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida imzolangan bitim ikki davlat siyosiy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Mazkur yilning 28-aprelda Toshkent shahrida Turkiya Respublikasining elchixonasi ochildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi 1993-yil yanvardan o‘z faoliyatini boshladi. Ikki davlat elchixonalarining ochilishi o‘zaro siyosiy-diplomatik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni jadallashtirishda muhim qadam bo‘ldi. 1992-yil 29 iyun – 1 iyul kunlari O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov Turkiyaga tashrif buyurdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston rahbari dunyo davlatlar ichida Turkiya O‘zbekiston uchun alohida o‘rin tutishi va uning madaniyati va iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori darajada ekanligini haqidagi O‘zbekiston rahbari tomonidan bildirilgan ijobiy fikr-mulohalari Prezident I .Karimovning siyosiy rolini kuchaytirishda muhim o‘rin tutdi. Turkiya Prezidenti T.O‘zal 1992 yil noyabr oyida “Turkiy tilda so‘zlashuvchi” mamlakatlarning birinchi sammitida Turkiya va Markaziy Osiyo o‘rtasida yaqin aloqalarni o‘rnatishga chaqirdi va bunda u yuqori darajadagi manfaatli siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyani o‘z ichiga olgan ulkan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va ikkala mintaqani ajratib turadigan devorlarning buzilishi haqidagi qarashlarni ilgari surdi.

U o‘z nutqining oxirida “agar biz bu tarixiy imkoniyatlardan iloji boricha samarali tarzda foydalana olsak, XXI asr turklarning asri bo‘ladi” deb alohida ta’kidladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025 yilga borib dunyodagi turkiy xalqlar nufuzi 227.2 milliondan oshishi tahmin qilinmoqda. Ularni bog‘lab turuvchi yagona unsur bu – turkiy til hisoblanadi. Ana shu omil Turkiya Prezidenti Turgut O‘zalning tashqi siyosatda ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida turkiy tilli davlatlar alyansini tuzishida namoyon bo‘ldi. Prezident T.O‘zal tomonidan aytilgan ushbu fikrlar O‘zbekiston rahbarining mamlakat mustaqilligini mustahkamlash yo‘lida olib borayotgan xarakteriga zid qarashlarini bildirgan edi.

Aloqalar shunga qaramay rivojlanib bordi va ikkala tomon ham o‘z obro‘sini oshirishda davom etdi. Shuningdek, I.Karimov 1994-yil iyun va 1997-yil noyabr oylarida ham Turkiyaga rasmiy tashrif bilan bordi. Shuningdek, 1998 yil oktabr oyida Turkiya Respublikasining 75 yilligiga bag‘ishlangan tantanalarda ishtirok etdi. Shu tariqa ikki davlat o‘rtasida katta tantanalarda festival va ilmiy anjumanlarni hamkorlikda

o‘tkazish an’anaga aylanib bordi. O‘z navbatida Turkiya Prezidenti Turgut O‘zal ham 1993 yil 6-7 aprel kunlari O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu davlatga birinchi bor tashrif buyurgan Turkiya Prezidenti tashrif davomida Buxoro shahridagi Bohouddin Naqshband majmuasini ziyorat qildi hamda Turg‘ut O‘zal tomonidan 45 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ majmua obodonchiligi uchun tuhfa qilindi. Ushbu tashrif davlatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. O‘tgan qisqa muddatli hamkorlik yillarida ikki davlat savdo-iqtisodiy aloqalari to‘la o‘z samarasini ko‘rsatmayotgan edi hamda ba‘zi muammolar yuzaga kelayotgan edi.

Bu kabi masalalarni hal etish maqsadida 1994-yilning iyul oyida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘lgan davlat rahbarlari yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Turkiya Prezidenti S.Demirel (1993-2000)ning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Ikki davlat rahbarlari davlatlararo iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirib, uni sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarish hamda o‘zaro hamkorlikda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, shu jumladan iqtisodiy va moliyaviy muammolarni ham ko‘rib chiqildi. Bu kabi hamkorlik barcha sohalarda o‘z ijobiy natijalarini namoyon qildi. Ushbu tashrif o‘z samarasini ko‘rsatib, 1994-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Xorijiy sarmoyalar bo‘yicha agentligi” va Turkiya Respublikasining “Iqtisodiy, madaniy, ta‘lim va texnikaviy hamkorlik tashkiloti” bozor iqtisodiyotiga o‘tishda reabilitatsiya dasturlari, sanoat korxonalarining reabilitatsiyasi, qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq bo‘lgan sanoat tarmog‘idagi kichik va o‘rta korxonalarni rivojlantirish, tashqi savdo va xalqaro moliya bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishda ma‘lumot – axborot va tahlil materiallari bilan o‘zaro almashishda hamkorlik qildi. Ikki davlat hamkorligi o‘z o‘rnida O‘zbekistonda iqtisodiy sohadagi islohotlarning ijobiy natijalari uchun xizmat qildi. Mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda Turkiya tajriba qo‘l keldi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti [I.A.Karimovning 2000-yil](#) sentabrda [Turkiya Prezidenti Ahmet Najot Sezer](#) bilan [BMTning](#) “Ming yillik” sammiti doirasidagi uchrashuvi ikki tomonlama aloqalarda muhim ahamiyat kasb etdi. 2003-yilda Turkiyaning bosh vaziri Rajab Tayyip Erdog‘on O‘zbekistonga keldi. Tashrif davomida yana bir qancha hujjat imzolandi. Jumladan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik va diplomatik pasport egalari uchun vizalarni bekor qilish haqida hukumatlararo bitim tuzildi. O‘zaro aloqalar xalqaro tashkilotlar doirasida ikki davlatning parlamentlari va vazirliklari o‘rtasida ham davom etdi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash, ikki tomonlama soliq solishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi bitimlar bilan muvofiqlashtirildi. Ikki tomon o‘rtasida bojxona to‘lovlariga nisbatan eng ko‘p qulaylik berish tartibi kuchga kirishi tufayli 2002-yil O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi tovar aylanmasi 1,7% o‘sib, 190,48 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan

bo'lsa, 2003-yilda 2002-yilga nisbatan 41,3% oshdi, umuman O'zbekistonning tashki savdo tovar aylanmasida Turkiyaning ulushi 4% ni tashkil etadi.

Turkiya O'zbekistondan rangli metall va undan tayyorlangan buyumlar, ip gazlama, trikotaj mato, paxta tolasi, oziq-ovqat (meva va yong'oq) oladi va O'zbekistonga mexanik uskunalar, yer osti transport vositalari, optik jihoz va uskunalar, mebel, elektr asboblari, plastmassa buyumlari, kimyoviy mahsulot, gilam va boshqa yuboradi. Ayni paytda umumiy qiymati salkam 1 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan (bu mablag'ning yarmini T. Eksim banki bergan) 16 loyihani birgalikda amalga oshirishga kirishildi. Chunonchi jun yigirish, mayin jun matolar va shu kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Kosonsoy Tekmen" qo'shma korxonasini barpo etish (loyiha qiymati 76 mln. AQSH dollari), Xorazm viloyatida trolleybus liniyasini qurish (loyiha qiymati 7,7 mln. AQSH dollari), shakar zavodini qurish (loyiha qiymati 82,2 mln. AKTJJ dollari) kabi loyihalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistondagi bir qancha mehmonxonalarni qayta qurish va ta'mirlashda Turkiyaning "AySel", "Ulus inshaat", "O'qan xolding", "Emesam" firmalari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasida Turkiya sarmoyasi ishtirokidagi 351 qo'shma korxonalar bor, ulardan 71 tasi 100% turk sarmoyasi bilan tashkil etilgan korxonadir. Qo'shma korxonalar orasida "SamKochavto" (avtobus va o'rta hajmdagi yuk mashinalari ishlab chiqarish.), "Papfen" (paxta tolasidan ip yigirish), "Koxis" (savdovositachilik faoliyati, "MetroMarket" supermarketi), "SharqMir LTD" (chakana savdo), "Mejik Plast" (plastik oyna romlari ishlab chiqarish.), yakka tartibdagi korxonalar orasida esa "Beta Algoritm" (choy qadoklash), "Dilek Interprayzis", "Aylin gida sanai va anonim shirkati" (ikkovi qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish.) eng yiriklari hisoblanadi.

Hamkorlikda tashkil etilgan korxonalarining 70% ga yaqini respublika ichki bozorida savdovositachilik faoliyatini olib boradi, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hamda texnik maqsadga mo'ljallangan mahsulotlarni O'zbekistonga kiritish va sotish bilan shug'ullanadi. 25% dan ziyod korxonalar esa to'qimachilik va ko'ncilik, oziq-ovqat sanoati, qurilish mollari va boshqa soxalarda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiradi. Korxonalarining qolgan qismi xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Turkiyada o'zbek sarmoyasi ishtirokida 2 korxonalar faoliyat ko'rsatadi.³

2003-yildan keyin ikki davlat munosabatlari sovuqlashishda davom etdi. XXI asr bo'sag'asida Turkiyaning ichki siyosatda o'zgarishlar ro'y bera boshladi. O'zbekiston-Turkiya munosabatlarida keskin pasayish 2005-yilda sodir bo'ldi. O'sha yili Andijonda terrorchilikda ayblangan shaxslarga nisbatan sud hukmi e'lon qilinishi munosabati bilan ommaviy tartibsizliklar bo'lib o'tdi. Bu voqealar qanday

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Turkiya_munosabatlari

yakunlangani hammamizga ma'lum. 2016-yilda O'zbekistonda hokimiyat transformatsiyasi yuz berdi.

O'zbekiston Respublika prezidenti Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelishi bilan ikki davlat o'rtasida hamkorlikning yangi bosqichi boshlandi. 2017-yilning oktabr oyida Shavkat Mirziyoyev prezident sifatida ilk bor Turkiyaga tashrif buyurdi. Haqiqatdan ham, bu tashrif O'zbekiston-Turkiya munosabatlarida yangicha dinamizm (rivojlanishning kuchli, tezkor, yuqori sur'atlari) shakllandi. Chunki 1999-yildan beri ikki davlat rahbari o'rtasida rasmiy tashriflar to'xtab qolgan edi.⁴

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil oktabrda Turkiyaga hamda Rejep Tayyip Erdog'anning 2018-yil aprelda O'zbekistonga uyushtirgan davlat tashriflari o'zaro siyosiy ishonchni mustahkamladi, samarali hamkorlikka keng yo'l ochib berdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev hamkorlikni yanada rivojlantish borasida "O'zbekiston-Turkiya munosabatlarini har tomonlama mustahkamlash va rivojlantirish yangi O'zbekistonning tashqi siyosiy yo'nalishiga to'liq mos keladi. Turk xalqi bilan tilimiz, dinimiz, anana va urf-odatlarimizning umumiyliги o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan hamkorlikni har tomonlama chuqurlashtirish va kengaytirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. O'zbekiston Turkiyaga o'zining muhim va uzoq muddatli hamkori sifati qaraydi. O'zbekiston Turkiya bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, qadoqlash qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha majmualar barpo etish, to'qimachilik va terini qayta ishlash sanoatida zamonaviy qo'shma korxonalar yaratish xususan, birgalikda paxta tolasi va temir xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali tayyor brendli mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarishi yo'lga qo'yish, farmasevtika sohasida hamkorlik oid yangi loyihalar tuzish va amalga oshirish masalalarida hamkorlikka tayyordir" degan so'zlari ahamiyatlidir.⁵

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunga kelib, O'zbekiston-Turkiya davlatlari tashqi siyosatidagi yondashuvlarining o'xshashligi hamda ikki mamlakat aloqalari "Strategik hamkorlik" bosqichiga ko'tarilganligi mamlakatlar o'rtasida manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yilishida va rivojlanishida muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston uchun Turkiyaning ta'lim, fan va texnika, innovatsiyalar, sog'liqni saqlash hamda sayyohlik xizmatlarini ko'rsatish borasidagi ulkan tajribasidan foydalanish va hamkorlikni yo'lga qo'yish O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

⁴ <https://xabardor.uz/uz/post/ozbekiston-turkiya-munosabatlari-tarixi-oradan-qanday-ola-mushuk-otgan-edi>

⁵ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Stategiyasi.-Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. b.339-340.

1. Buxoro Davlat Universiteti. “Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi”. Ma’ruzalar to‘plami. 2018. b. 98-99.
2. B.X. Imamov. O‘zbekiston va Turkiya davlatlari o‘rtasidagi siy o siy , iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991-2018 yy .). Monografiya. – Q.: «Intellekt» nashriyoti, 2021. b.18-21.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Turkiya_munosabatlari
4. <https://xabardor.uz/uz/post/ozbekiston-turkiya-munosabatlari-tarixi-oradan-qanday-ola-mushuk-otgan-edi>
5. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Stategiyasi.-Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. b.339-340.